

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FATULLAYEVA KAMOLA RAXMATULLAYEVNA

TIBBIY BIRLIKLARDA SINONIMIK VA ANTONIMIK
MUNOSABATLAR (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

UO'K: [811.111+811.512.133]`373.421/422:61]

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Fatullayeva Kamola Raxmatullayevna

Tibbiy birliklarda sinonimik va antonimik munosabatlar (ingliz va o'zbek tillari misolida).....3

Фатуллаева Камола Рахматуллаевна

Синонимические и антонимические отношения в медицинских единицах (на примере английского и узбекского языков).....21

Fatullayeva Kamola Raxmatullayevna

Synonymic and Antonymic Relations in Medical Units (on the example of English and Uzbek languages)43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FATULLAYEVA KAMOLA RAXMATULLAYEVNA

**TIBBIY BIRLIKLARDA SINONIMIK VA ANTONIMIK
MUNOSABATLAR (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Fil3594 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.


Ilmiy rahbar:	Abuzalova Mexriniso Kadirovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Djumabayeva Jamila Sharipovna filologiya fanlari doktori, professor Saidova Muxayyo Umedilloevna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 18 » mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (619 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 02 » mart kuni tarqatildi.

(2026-yil « 02 » mart dagi 26-03 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O.Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon lingvistik tadqiqotlarida tibbiyot terminosistemasining leksik-semantik qirralarini tipologik jihatdan o'rganish, uning funksional xususiyatlarini tasniflash va qiyoslanishini tadqiq etishga e'tibor kuchaymoqda. Tibbiyot fanining ko'p asrlik taraqqiyoti natijasida shakllangan, jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy tibbiyot terminlari makrosistemi tibbiy va paramedikal atamalar majmuasi sifatida tibbiyotning mustaqil yo'nalishlari bo'lgan tibbiy informatika, tibbiy genetika, tibbiy radiologiya, nanomeditsina, telemeditsina kabi fanlar mikrosistemalarini shakllantirgan. Ushbu leksik qatlamni o'rganish va to'ldirish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri bo'lib, tibbiyot sohasida tizimlashtirilgan, yagona terminologik sathni shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida tibbiy sohaga mansub lisoniy vositalarni har tomonlama tahlil qilishga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar tibbiyot terminologiyasi semantik va pragmatik aspektda chuqurroq tahlilni talab qilayotganini, ingliz hamda o'zbek tillari tibbiy terminlaridagi semantik jarayonlarni tadqiq qilish muhim ekanligini belgilaydi. Har bir tibbiy birlik subterminal tizimning elementi sifatida anatomik, gistologik, embriologik, terapevtik, jarrohlik, ginekologik, endokrinologik, sud-tibbiyot, travmatologik, psixiatrik, genetik, biokimyoviy kabi sohalarning ma'lum bir ilmiy tasnifini aks ettiradi va ulardagi mikroterminal tizim darajasida leksik-semantik, sinonimik, antonimik, graduonimik, gipo-giperonimik, iyerarxik, partonimik munosabatlarni tahlil qilish bu sohadagi semantik jarayonlarning spetsifik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda o'zbek atamashunosligi zaxirasini boyitish, tibbiyot sohasida zamonaviy terminlarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ingliz va o'zbek tillari kesimida leksik-semantik munosabatlarini qiyoslash, elektron lug'atlarini tuzish, tilshunoslik hamda tibbiyotda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Zero, "bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi darkor"¹. Shu ma'noda tibbiy birliklarda sinonimik va antonimik munosabatlarni ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosan tadqiq qilish, ularning til hodisalari bilan o'zaro bog'liqligini tillararo va madaniyatlararo munosabatlar asosida o'rganish, ularning matnaro dinamik xususiyatlarini differensial va integral yondashuv asosida aniqlash, milliy tilshunosligimizni nazariy qarashlar, yechimlar bilan boyitishga keng yo'l ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni/ <https://lex.uz/docs/-4561730>.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiyaning ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida tibbiy lingvistik birliklar ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va turli ilmiy muhokamaga sabab bo‘lgan masaladir. Jumladan, A.A.Reformatskiy, G.O.Vinokur, L.V.Dubenkova, L.M.Apuxtina, D.K.Kondratyev, N.I.Melko, Y.V.Smironova, R.R.Shamsutdinova, M.U.Chernishov, O.I.Rukovishnikova, O.V.Otradnova, A.A.Grosheva, P.I.Shleyvis, B.Ch.Dzyuganova, M.U.Shmaylo kabi tilshunos olimlar tomonidan tibbiyot leksikasining semasiologiyasi, etimologiyasi, shakllanish omillari, ma‘naviy guruhlar, funksional jihatlari, milliy-mental xususiyatlari tillar kesimida tadqiq etilgan².

O‘zbek tilida ham tibbiy terminologiya bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. A.Qosimov, Y.X.To‘raqulov, A.Usmonxo‘jayev, E.I.Basitxanova, M.S.Turaxanovalar tomonidan zamonaviy tibbiyotda qo‘llaniladigan mingdan ortiq

²Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (материалы Всесоюзного терминологического совещания). – М., 1961. – С. 46-54; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ / – 1939. – Т. 5. – 124 с; Дубенкова Л.В., Апухтина Л.М. Медицинская терминология: различные способы образования медицинских терминов (на примере английского языка) // INNOVA – № 1(6). – 2017. – С.26-30; Кондратьев Д.К., Мелько Н.И. Немотивированные термины в медицинской терминологии // Учебный процесс. Журнал ГГМУ. – 2009. – № 2. – С. 235-237; Смирнова Е.В. Структурные особенности образования эпонимов в медицинской терминологии (на примере английского языка) // Вестник гуманитарного факультета ИГХТУ. – 2014. – Вып. 6. – С. 100-103; Шамсутдинова Р.Р. Медицинская терминология в татарском языке: автореф. дис. канд. филол. наук. – Казань, 2000. – 24 с.; Чернышов М.Ю. О семасиологических принципах построения и употребления медицинских терминов-эпонимов в испанском, английском и русском языках // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. – 2013. – № 2. – С. 70-79; Руковишникова О.И., Отраднова О.В. Особенности терминологической номинации в медицинской лексике китайского языка // Международный научно-исследовательский журнал. Филологические науки. – 2017. – № 9 (63). – Ч. 2. – С. 146-150; Грошева А.А. К вопросу об асимметрии терминологического знака в медицинской терминологии // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – 2015. – Т. 17. – № 2(2). – С. 449-452; Шлейвис П.И. Лингвистически релевантные характеристики терминологических единиц [Электронный ресурс]. Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. – 2016. – Т.2, №4. – С. 21-27; Dzyuganova B. English medical terminology – different ways of forming medical terms. JAHR. – 2013. –Vol. 4. – No. 7. – P. 55-69. 43. Shumylo M.Y. Etymological and semantic changes of the English medical terms. Science and Education a New Dimension.Philology. – 2014. – II (6). – No. 29. – P. 29-31.

klinik tushunchalar va tibbiy birliklarni o'z ichiga qamrab olgan tibbiy terminlar lug'atlari yaratilgan³. O'zbek tilshunoslaridan M.Q.Abuzalova, N.I.G'aybullayeva, A.B.Qobilova, D.R.Sobirova, F.I.Abdulxairova, G.Roziqova, M.G'.Navro'zova tadqiqotlarida tibbiy birliklarning lingvistik xususiyatlari, qiyosiy tahlillari lingvokulturologik aspektda o'rganilgan⁴.

Mazkur tadqiqotda esa ilk marta ingliz va o'zbek tillari kesimida tibbiy birliklarning leksik-semantik: sinonimik-antonimik munosabatlarini qiyosiy tahlil qilish va tavsiflash vazifasi ko'zda tutiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari" hamda "Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va tarjimashunoslik muammolari" mavzularidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillari tibbiy birliklarida sinonimik va antonimik munosabatlarning differensial va analogik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiy terminologiyaga mansub maxsus va ixtisoslashmagan terminlarni aniqlash hamda ularning lingvistik (tarkibiy va semantik) xususiyatlarini ochib berish;

tibbiy atamalarning leksik-semantik guruhlarini aniqlash va funksional xususiyatlarini izohlash;

tibbiy birliklarning semantik, morfologik va funksional xususiyatlari bilan ajralib turadigan leksikaning taqqoslanayotgan tillar kesimida tizimli munosabatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillari kesimida tibbiy birliklarning leksik-semantik: sinonimik-antonimik, graduonimik munosabatlarini qiyosiy tahlil qilish va tavsiflash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiy birliklar va tibbiy terminlar tanlangan.

³ Қосимов А. Русча-ўзбекча-лотинча фармацевтик терминлар луғати. 2 жилд. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2003. – 568 б.; Ё.Х. Тўрақулов. Тиббиёт қомусий луғати. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – 288 б.; А.Усмонхўжаев, Э.И.Баситханова, М.С.Тураханова. Катта тиббиёт ўқув луғати. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2014. – 368 б.

⁴Abuzalova M. Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine. Journal of Contemporary Issues in Business and Government (Web of scientist). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4683; Абузалова М. Лингвистика ва тиббиёт ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида. Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 10-noyabr, 2021.17-22 b.; Ғайбуллаева Н Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 71 б.; Қобилова А. Тиббий матнларда қўлланиладиган перифразалар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) France <https://conferencepublication.com> February 27th 2021; Собирова Д. Тиббий реклама матнларини яратиш усуллари. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 73 б.; Абдулхайрова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филол. фан. б. ф. д-ри. (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – Б.23; Розикова Г. Махмуд Кошғарий “Девон”ида қўлланган тиббиётга доир сўз ва атамаларнинг лексик-семантик таҳлили/ Хоразм ма’мун академияси ахборотномаси. 2020. №9. – В.187-191; Navro'zova M. O'zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari: Filol. fan. b. f. d-ri. (PhD) diss. – Buxoro, 2023. – 142 b.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillari tibbiy birliklarining sinonimik va antonimik munosabatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishda qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, semantik, struktur, funksional, tasniflash, leksikografik, komponent, statistik, kontekstual va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminlarning shakllanishi, taraqqiyot usuli, terminlashishida tizimlilik, o'z terminologik maydonidagi monosemiklikka moyillik, ekspressiya, stilistik betaraflik xususiyatlari hamda affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, abbreviatura, o'zlashmalar orqali derivatsion mazmun kasb etishi aniqlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi tibbiy birliklarni boyitishda so'z o'zlashtirish, internatsional leksika, tibbiy evfemizm, tibbiy perifraza, tibbiy eponim, metaforalar, shuningdek, ularning semantik maydonini hosil qiluvchi sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, partonimiya kabi paradigmatic munosabatlar samaradorligi isbotlangan;

har ikkala tilning tibbiy terminlar tizimidagi sinonimiya hodisasida dublet sinonimlar samaradorligi aniqlanib, bunday dubletlarda ingliz tilida tasniflangan ekvivalent "sifat + ot" atamali tarkibda bo'lsa, o'zbek tilida "ot+fe'l" birikmasi unumdorligi hamda ularning *almashtirish* (bir xil leksemalarning takrorlanishi), *aniqlashtirish* (ma'lumotni aniq yetkazish), *stilistik* (nutqqa ko'rkamlik berish), *ekspressivlik* (uslubiy bo'yoqdorlik) funksiyalari dalillangan;

ingliz va o'zbek tillari tibbiy birliklarida antonimik munosabatlar inson fiziologik hamda psixologik holati bilan bog'liq jarayonlarning o'zaro qarama-qarshiligida, turli o'xshatishlar, sifatlashlar, qiyoslar, obrazlilik asosida yuzaga chiqishidagi daraja ko'rsatkichini olgan tibbiy birliklar safining eng yuqori va eng pastki o'rinda turuvchi leksemalar gradatsiyasi orqali voqelanishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiy terminologiyani tahlil qilish tillar leksikasidagi tizimli munosabatlarni ochib berish imkonini yaratib, ularning qo'llanish usullari, strategiyalari yuzasidan bir qator nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar shakllantirilgan;

ingliz va o'zbek tili tibbiy birliklarining shakllanishi, yuzaga kelish omillari, taraqqiyot bosqichlari, tarkibi aniqlanib, terminologiya tizimidagi struktur-semantik, shakliy-mazmuniy jihatlari dalillangan;

ingliz va o'zbek tili tibbiy birliklarida sinonimik va antonimik munosabatlar, leksik-semantik, funktsional-uslubiy xususiyatlar lingvomadaniy, milliylik tamoyillari nuqtayi nazardan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilgan materiallarning respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, semantik, struktur, funksional, tasniflash, leksikografik, komponent, statistik, kontekstual va konseptual tahlil usullari orqali dalillanganligi, tadqiqotning materiali sifatida ensiklopediyalar, soha jurnallari, badiiy va davriy nashr materiallari asosida termin-metafora, termin-perifrazalardan foydalanilgani, tahlil hamda talqin qilinganligi bilan belgilanadi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy

nashrlarda chop etilgan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya natijalari bugungi kunda ingliz va o'zbek tili leksikasi, tibbiy birliklarning tuzilishi va talqini haqida tizimli tasavvur hosil qilishi, soha terminlarini tavsiflash, situativ sharoitni belgilash haqidagi bilimlarni boyitishi, terminologiyada shakllangan va shakllanayotgan yangi, zamonaviy terminologik sistemalarni o'rganishga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlarga keng yo'l ochishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Tilshunoslik nazariyasi", "Umumiy tilshunoslik", "Terminologiya", "Leksikografiya", "Nutq madaniyati" singari mutaxassislik fanlaridan ma'ruzalar tayyorlashda, shuningdek, "O'zbek tili" fani o'qitiladigan oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi, dissertatsiya taklif va tavsiyalari ingliz va o'zbek tilining qo'llanish ko'lamini kengaytirishga, tibbiyot terminologiyasini o'zbekcha so'zlar bilan boyitishga va tibbiy terminosistemadagi semantik jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillari tibbiy birliklarida sinonimik va antonimik munosabatlarni tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natija va xulosalar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida tibbiy terminlarning shakllanishi, taraqqiyot usuli, terminlashishida tizimlilik, o'z terminologik maydonidagi monosemiklikka moyillik, ekspressiya, stilistik betaraflik xususiyatlari hamda affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, abbreviatura, o'zlashmalar orqali derivatsion mazmun kasb etishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020- yillarda bajarilgan OT-Φ1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 7-dekabrdagi №01/4-2626-son ma'lumotnomasi). Natijada soha terminlarini tartibga solish yuzasidan tavsiyalar berish hamda inglizcha-o'zbekcha lingvistik terminlar lug'ati mazmuni boyitilishiga asos bo'lgan;

qiyoslanayotgan tillarda tibbiy birliklarni boyitishda so'z o'zlashtirish, internatsional leksika, tibbiy evfemizm, tibbiy perifraza, tibbiy eponim, metaforalar, ularning semantik maydonini hosil qiluvchi sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, partonimiya kabi paradigmatic munosabatlar samaradorligiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 4-dekabrdagi №1187/02-son ma'lumotnomasi). Natijada tibbiy terminlar haqidagi ilmiy qarashlarning boyishiga asos bo'lgan;

har ikkala tilning tibbiy terminlar tizimining sinonimiya hodisasida dublet sinonimlar samaradorligi aniqlanib, bunday dubletlarda ingliz tilida tasniflangan ekvivalent “sifat + ot” atamali tarkibli bo’lsa, o’zbek tilida “ot+fe’l” birikmasi unumdorligi hamda ularning *almashtirish* (bir xil leksemalarning takrorlanishi), *aniqlashtirish* (ma’lumotni aniq yetkazish), *stilistik* (nutqqa ko’rkamlik berish), *ekspressivlik* (uslubiy bo’yoqdorlik) funksiyalari bilan bog’liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom, Buxoro”, “Zamondosh” ko’rsatuvlari va “Asrlarning asraganlari” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 17-noyabrdagi №02-09-321-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko’rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 19 ta ilmiy ish, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Zamonaviy terminologiyaning umumiy xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning birinchi “*Terminshunoslik*”, “*terminologiya*” va “*termin*” tushunchalarining mutanosibliigi” deb nomlangan bo’limida ushbu tushunchalarning lug’aviy ma’nolari, paydo bo’lishi, rivojlanishi, tilshunoslikda tutgan o’rnini va uning vazifalari doirasini aniqlash kabi masalalar o’rganilgan. Mazkur birliklar bo’yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, ta’riflar izohlanib, nazariy bilimlar umumlashtirilgan. Termin tushunchasi tilshunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi va umumiy bir ta’rifga ega emas. Ayrim olimlar terminga mantiqiy izoh berishadi, boshqa bir guruh terminga xos belgilarni tushuntirgan holda uning ma’nosini tavsiflashga harakat qilishadi, uchinchi guruh olimlar esa termini boshqa bir birlikka qarama-qarshi qo’yish yo’li bilan ajratadilar. Nazarimizda, terminga (sistemalilik, monosemiyaga intiluvchanlik,

sohaviylik) va uning paydo bo'lishiga xos xususiyatlar (ichki yasaliş, kalkalash, semantik kalkalash, o'zlashish kabilar) biror bir til yoki sohalar kesimida chegara bilmaydi. Buni esa til jarayonlariga nolisoniy omillarning faol ta'siri sifatida baholash mumkin. Dissertatsiyada turli tadqiqotlar doirasida ularning quyidagi tasniflari 1-jadvalda umumlashtirilgan(1.1 - jadvalga qarang):

“1.1 - jadval.”

Terminlar tasnifi

№	Terminlarning tasniflari nomi	Izohi
1	Terminlarni falsafiy tasniflash	Kuzatish va nazariyot terminlariga bo'linishidan iborat. Bunday bo'linish falsafaning terminologik muammolarini hal qilish uchun yetarli, ammo terminologiyani falsafiy muammolarini hal qilish uchun esa batafsilroq tasniflanishlar zarur.
2	Terminlarning nom obyekti bo'yicha tasnifi	Bilim, faoliyat sohaları, yoki maxsus sohalar bo'yicha taqsimlanishi hisoblanadi.
3	Terminlarning mantiqiy toifasiga ko'ra tasnifi	Jonivorlar (sutemizuvchilar), jarayonlar (ko'paytirish, ish yuritish, kompressiya), belgilar, xususiyatlar (sifat, ravish), miqdorlar va ularning birliklari (tok kuchi, amper) terminlari farqlanadi.
4	Terminlarning lingvistik tasnifi	Ma'no semantikasiga ko'ra bir ma'noli va ko'p ma'noli terminlarni, ma'no munosabatiga ko'ra sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya, partonimiyalarni, tibbiy terminlarning struktur (bir komponentli, ikki komponentli, uch komponentli, to'rt va undan ortiq komponentli tuzilishga ega terminlar) kabi bo'linishlarini farqlash mumkin bo'ladi.
5	Motivatsiyalanganlik/no motivatsiyalanganlik bo'yicha tasnifi	Parkinson's disease – Parkinson kasalligi, yotoq yara, quyonlab, bo'riog'iz singari. Bunday terminlarni istefoda qilishda o'xshashlik semalari kuchaytiriladi.
6	Manba tiliga qarab	O'z qatlamga tegishli (shol, kuydirgi, belangi...), o'zlashtirilgan (yunon tiliga asoslangan progeriya (pro – old, oldindan; geri, geronto – qari, ya'ni organizmning erta qarishi), gibril (antime'yor, tibshunoslik) kabi turlarga bo'linadi.
7	Terminlarning so'z turkumiga ko'ra tasnifi	Ot, sifat, fe'l, ravish terminlarga ajratiladi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, obyekt\makonni nomlaydigan terminlarga qaraganda xossa, xususiyatlarni ataydigan terminlar foizlarda ancha ko'p. Belgilarning o'zi ham terminlarda predmetlashgan tarzda ifodalanadi.
8	Tarixiy va leksikologik tasnifi	Arxaizm terminlar va neologizm terminlarga bo'linadi.
9	Qo'llanish chastotasiga ko'ra terminlar tasnifi	Yuqori chastotali va past chastotali terminlar.

Bobning ikkinchi bo'limi “*Sohaviy terminlarning rivojlanish tendensiyalari*” deb nomlanadi. Sohaviy terminlarda tillarning rivojlanish tendensiyalari ko'p

jihtadan ularning semantik yadrosini tashkil etuvchi terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Biroq, ular faqat terminologik xususiyatlar bilan cheklanmaydi. Soha terminlar rivojlanishida – integratsiya, differensiya, internatsionalizatsiyalash, unifikatsiyalash kabi to'rtta tamoyilni ajratish mumkin.

Aytish mumkinki, ingliz tibbiy terminologik tizimi diaxron hamda sinxron usulda har jabhadan, shu jumladan: etimologik, morfologik, semantik, leksik, lingvokulturologik tomondan tahlil qilinib o'rganilgan. Xususan, R.Magliening "Understanding the language of medicine (Tibbiyot tilini tushunish)"⁵ nomli kitobida tibbiy terminlar avval diaxron, so'ng sinxron tarzda o'rganilgan. Muallif tibbiy terminlarni lingvistik (leksik, semantik) hamda metodik jihatdan tadqiq qilgan bo'lib, og'zaki tibbiy diskurs qismida bemor hamda ularning oilalari bilan shifokorning o'zaro muloqoti, ilmiy muloqot hamda tibbiyot sohasidagi tarjimonlar haqida kerakli ma'lumotlarni keltirgan. Yozma matn tahlili qismida esa tibbiyotga oid matn turlari va ularning alohida jihatlarini ochib bergan. Ushbu asar tibbiy terminlarning diskursda qo'llanilishi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilganligi bilan ajralib turadi. R.Taylorning "The amazing language of medicine: understanding medical terms and their backstories (Tibbiyotning ajoyib tili: tibbiy terminlar hamda ularning tarixini tushunish)"⁶ nomli kitobi ingliz tibbiy terminlari etimologik jihatdan tadqiq qilingan eng beqiyos asardir. Ushbu kitobda tibbiyotga oid terminlarning leksik, semantik, stilistik jihatdan tahlili hamda ularning qiziqarli tarixi mufassal yoritilgan. Mazkur kitob o'zida ko'plab tibbiy terminlarning qiziqarli afsonasini hamda hozirgi kundagi izohini mujassamlashtirgan yetuk asardir. O'rta asr inglizcha dori vositalari nomlarining keng qamrovli tadqiqi tilshunos Marta Sylwanowiczning "Middle English names of medical preparations: towards a standard medical terminology" (Tibbiy preparatlarning o'rta asr inglizcha nomlari: tibbiy terminologiya standartiga binoan)⁷ nomli kitobida yoritilgan. Ushbu asarda XIV-XV asrlarda yozib qoldirilgan, dorilarga bag'ishlangan jami 1600 ta adabiyotlardagi, shu jumladan, lug'atlardagi dori vositalari nomlari tahlil qilingan. Mazkur asarda farmakologik terminlarning kelib chiqishi, ularning strukturasi hamda tibbiyotga oid matnlar (diskurs)da ifodalanilishiga e'tibor qaratilgan. Tibbiy terminlarning morfologik tadqiqi borasida bajarilgan ilmiy ishlar ichida B.Dzukanovanning maqolasi⁸ muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi, ilmiy va texnologik yutuqlar, madaniyatlararo aloqaning tobora ortib borayotganligi kasbiy terminlar sohasida keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Bu ma'noda aytish mumkinki, tibbiyot fan va inson faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib kelmoqda, shuning uchun ham bu soha terminologiyasining holatini o'rganish zamonaviy terminologiyaning dominant, yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bobning uchinchi bo'limi "*Termin yasallishining o'ziga xos xususiyatlari*" deb


⁵ Rosita M. Understanding the language of medicine. – Aracne, 2009. – p.164

⁶ Taylor R. The amazing language of medicine: understanding medical terms and their backstories. – Springer International Publishing AG, 2017. –p. 249


⁷ Sylwanowicz M. Middle English names of medical preparations: towards a standard medical terminology. – Peter Lang GmbH, 2018.– p.230

⁸ Dzukanova B. (2006). Negative affixes in medical English. Bratisl Lek Listy. 107 (8). – p. 332-335

nomlanadi. Terminologiyani tarkibiy xususiyatlarini ko‘rib chiqishda ko‘pincha terminologik birlikning shakliga, ya’ni morfologik tuzilishiga e’tibor beriladi. V.P.Danilenkoning tasnifiga ko‘ra, terminlar lisoniy va nolisoniy turlarga bo‘linadi (1.1 -rasm va 1.2-rasmga qarang):



“1.1- rasm.” Terminologik birliklarning lisoniy turlari



“1.2- rasm.” Terminologik birliklarning nolisoniy turlari

Tibbiyot terminlari ko‘p hollarda struktur-semantik jihatlari to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganiladi: *sodda terminlar*: measles (qizamiq); heart (yurak); liver (jigar); *yasama terminlar*: disease (kasallik) termini *dis* (inkor) old qo‘shimchasi, *aise* “lotin tilida yengillashtirmoq” va *e* (ot yasovchi qo‘shimcha); *birikmali terminlar*: *white blood cells* termini *white* “oq”, *blood cells* “qon hujayralari”; *high blood pressure* (yuqori qon bosimi); *heart disease* (yurak kasalligi) so‘zlari birikuvidan kelib chiqqan; *qo‘shma terminlar*: *cardiopulmonary* – bu termin inglizcha (cardio-yurak, pulmonary-o‘pka) ma’nosini bildirib, ot+ot komponentlaridan, *gastroenterology* – bu termin (gastro- oshqozon, entero- ichak) ma’nosini bildirib, ot+ot komponentlaridan tashkil topgan; *hepatitis* *hepat* jigar, *-itis* yallig‘lanish ma’nosini anglatib keladi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi “*Olam lisoniy manzarasida tibbiyot leksikasi*” deb nomlanadi. Olamning lisoniy manzarasida har bir tibbiy termin o‘z lisoniy qurshoviga ega. Tibbiyot terminologiyasi, uning tarkibiy, semantik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish ingliz va o‘zbek tili vakillari lingvistik manzarasining muhim qismi sanaladi. Shu munosabat bilan terminlarni alohida emas, balki hech bo‘lmaganda leksik-semantik maydonlar (LSM) doirasida o‘rganish muhimdir, chunki LSMni dunyoning til modeli elementlariga kiritish mumkin, bu o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq leksik birliklarning iyerarxik tarkibiy birligidan iborat. Ular o‘z semantik tuzilishida integral xususiyatga ega va ifodalanilayotgan hodisalarning konseptual, predmetli yoki funksional o‘xshashligini aks ettiradi. Leksikani alohida emas, balki leksik-semantik maydonning yaxlit tarkibida o‘rganish bizga ingliz va o‘zbek tilida so‘zlashadigan madaniyat vakillari olam manzarasining (OM) parchasini ko‘rib chiqishga hamda uning o‘ziga xosligini, tibbiy terminologiyada esa universal xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. S.V.Velichkova va Y.N.Taranovanning izohiga ko‘ra, tibbiy terminologiya tarkibiy-semantik, so‘z yasalishi, stilistik xususiyatlariga ko‘ra leksikaning alohida qatlami hisoblanadi. Bu unga tilning leksikasida muayyan, o‘ziga xos o‘rin egallashiga imkon beradi.

Shuningdek, ular til rivojlanishining hozirgi bosqichida tibbiy terminologiya nafaqat ilmiy diskurs va ixtisoslashtirilgan sog'liqni saqlash muassasalarida, balki so'zlashuv nutqida, badiiy diskursda ham keng qo'llanilishini alohida ta'kidlashadi⁹. Shunday qilib, tibbiy terminologiya turli pozitsiyalardan, ya'ni ham an'anaviy tilshunoslik, ham kognitiv tilshunoslikdan turib o'rganish uchun doimiy material manbayi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tili tibbiy birliklarida sinonimik munosabatlar”** deb nomlanib, uch bo'limdan tashkil topgan. Bobning birinchi bo'limida *“Tibbiy leksikani shakllantirish usullari xususida”* fikr yuritiladi. Tibbiyot lug'aviy tizimini shakllantirishning ko'plab usullari mavjud va ular qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. O'zlashmalar asosida. Bunda ko'pincha qardosh tillar doirasida keng qo'llanadigan, o'zlashgan bo'lsa ham allaqachon bunday o'zlashganlik xususiyatini yo'qotgandek ko'rinadigan, tibbiy terminologiya tizimida salmoqli o'rin egallagan lisoniy qatlam tushuniladi: ingliz tilida – *cardiology*(yun.), *surgery*(lot.), *malaria*(fr.,lot.), *hospital*(fr.), *alcohol*(arab.), *aspirin*(nem.); o'zbek tilida –*hamshira, nosog'lom, damqisma-nafas qisishi, hansirash, astma* kabi.

2. Internatsionalizmlar asosida. Bu dunyoning ko'plab tillarida keng tarqalgan grek-lotin tilidan olingan baynalmilal so'zlardir. Terminologiyada internatsionalizmlar sonining ortishi davr talablari va hayotning o'z ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib kelgan. Yevropa turli tillaridagi tibbiy terminlarning asosiy qismi lotin va grekcha internatsionalizmlar bilan ifodalanadi va u orqali o'zbek tili tibbiy terminologik tizimiga ham o'tadi. *COVID-19, anatomy, amputation, abort, abscess, adenoma, angina, bacilla, coma, depression, embryo, gangraena* kabi ko'plab lotinizmlar tibbiyot terminologiyasi o'zagini tashkil etib kelmoqda.

3. Mavjud so'zlarning yangi ma'no kasb etishi asosida: ing.: *injection, tablet, dose, drain, cough, rub*; o'z.: *sirop, damlama, qaynatma* va boshqalar.

4. Evfemizatsiya (jumla yoki so'zni muloyimlashtirish) asosida. So'zlovchi (shifokor) vaziyatga qarab bemor yoki uning yaqinlariga yetkazayotgan axborotida uyat, o'ng'aysizlik, salbiylik hissini paydo qilmaslik uchun evfemik birlikni tanlaydi. Masalan, ing.: *pass away- die, mentally challenged- mental retardation, senior citizen- old person, sleep disorder- insomnia*; o'zb.: *eshitishdan mosuvo – kar, pedikulyoz- bit, oqarmoq- pes* va boshqalar.

5. Eponimlarni qo'llash asosida. Aytish mumkinki, eponimiya hodisasi ham til lug'at qatlamini kengaytiruvchi, professional bo'lmagan ijtimoiy qatlam nutqida uning omma uchun tushunarli bo'lgan varianti bilan ma'nodoshlik hosil qiladigan tibbiy birliklar sanaladi. Chunki ma'lum kasallik uni kashf etgan, ilk kasallangan shaxs, kasallik tarqalgan joy va boshqalar bilan belgilanar ekan, bu nafaqat tibbiy terminologik tizimni boyitadi, balki uning variantdoshi bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Masalan, *Alisa mo'jizalar mamlakatida sindromi*(tevarak-atrofdagi narsalarning o'lchamlari va ular orasidagi masofani baholay olmaslik, psixiatrik kasallik), *Altsgeymer kasalligi*(xotiraning butunlay yo'qolishi), *Daltonizm* – rang ko'rliги (rang ajrata olmaslik), *Parkinson kasalligi*(qo'llarning qaltirashi,

⁹ Величкова С.М., Таранова Е.Н. Структурно-семантические особенности медицинской лексики (на материале немецкого языка) // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. – 2012. – № 18 (137). – Вып. 15. – С. 47–54.

silkituvchi falajning nomsiz sinonimi), *Daun sindromi*(aqli norasolik) kabi.


6. Yunon-lotin prefikslarining turli kombinatsiyalari asosida: *lactotherapy-galotherapy, amneziya-paramneziya*.

7. Metaforalar hosil qilinishi asosida. Metafora har qanday til leksik tizimining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi va tibbiy terminologiyada muhim o'rin tutadi. Metafora – tibbiy atamalarni shakllantirishning samarali usuli. Chunonchi, *butterfly rash* (lupus kasalligida yuzaga keladigan yuzdagi toshma kapalakka o'xshatilgan), *brainstorming*(miya faoliyatining faolligi), *suvchechak, chechak, qulog'i og'ir, ko'z olmasi, ko'richak, quyonlab* va boshqalar.

8. Perifrazalar orqali nomlash asosida: *the silent killer*(hypertension), *blue baby syndrome*(cyanosis); *limon - qon bosimi termometri, oshqovoq – sariq oltin, yelbo'g'oz – yolg'on homiladorlik* va shunga o'xshashlar.

9. Sinonimiya(ma'nodoshlik) asosida: *fever- pyrexia, tooth decay- dental caries, cold- upper respiratory tract infection(URI); falaj-shol; saraton-rak-o'sma; tuberkulyoz-sil; OITS-SPID; saxar-qandli diabet* kabilarni sanab o'tish mumkin.

Ilgari milliy tibbiy terminologiyalar ko'pincha tibbiy atamalarni lotin tilida shakllantirgan bo'lsa, hozirgi kunda bu so'z hosil qilish jarayoni samarasiz kechmoqda. Quyida ingliz tiliga o'zlashgan tibbiy atamalar statistikasini keltirishga harakat qilamiz(2.1-rasmga qarang):



“2.1- rasm.” Ingliz tiliga o'zlashgan tibbiy atamalar

Bobning ikkinchi bo'limi “*Tibbiyot leksikasida sinonimiya hodisasi va tavsiflash muammosi*” deb nomlanadi. Sinonimiya o'ziga xos mental-lingvistik kategoriya sanaladi. Tibbiyot terminologiyasi inson faoliyatining eng muhim sohasi – inson hayotini saqlash va davolash bo'yicha bilimlar majmuyi bo'lishiga qaramay turli tillar kesimida hali to'liq sinonimik tahlil mavzusiga aylanmagan. Ushbu bo'limda tibbiy inglizcha-o'zbekcha sinonimlar tavsiflanadi va tahlil qilinadi, bu esa zamonaviy tibbiy terminologiyaning xususiyatlarini aniqlash va terminologik sinonimlarning turlarini tasniflash imkonini beradi. Darhaqiqat, tibbiy tushuncha sanalmish "kasallik" so'zi har ikki tilda o'ziga xos paradigmani tashkil etadi. Masalan, ingliz tilidagi “kasallik” so'zi *illness, ailment, disease, trouble, disorder, sickness, disturbance, distress, condition* (muammo, tartibsizlik,

bezovtalik, iztirob, holat...) kabi atamalar bilan ifodalanadiki, shubhasiz, matnda tarjima jarayonida sintaktik qurilma mazmuniga qarab birlikdagi ma'no to'g'ri talqin qilinishi kerak va matn mazmuniga mos variantdosh tanlab olinishi lozim. O'zbek tilida "kasallik" so'ziga ma'nodoshlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: *kasal, betob, xasta, xastahol, nosog'lom, bemor, kasalmand, madorsiz, notob, nimjon, davotalab* kabi. Yoki "nogironlik" bilan bog'liq *mayib, majruh, imkoniyati cheklangan*; "aqli norasolik" bilan bog'liq *telbanoma, telbasaro, devona, vasvos, jinni, aqli zaif* kabi uslubiy, ma'no qirralari bilan farqlanadigan tibbiy birliklar.

G.F.Kurishko "tibbiyot tili mikrotizimi boshqa atamalar tizimi kabi juda ko'p sinonimlarga ega" ekanligini aniqladi¹⁰.

Bobning uchinchi bo'limi "*Sinonimiya – o'ziga xos mental-lingvistik kategoriya*" deb nomlanadi. Soha terminologiyasini kuzatganda sinonimik munosabatlarning *ideografik* – so'zlar bir tushunchani bildiradi, lekin ma'no nozikliklari bilan farqlanadi (*doctor – physician – medical practitioner*; shifokor - vrach – amaliyotchi shifokor); *stilistik* – so'zlar lug'aviy ma'nosida umumiylik, lekin semantik yoki hissiy-ekspressiv bo'yoqlari, uslubiy qo'llanishi bilan farqlanadigan (*lazy eye – amblyopia* /dangasa ko'z - ambliopiya); *mutlaq*(absolyut) – so'zlar barcha ma'no va uslubiy jihatdan mos keladi, aynan bir xil ma'noga ega sinonim turlari mavjudligi oydinlashdi. Ingliz tibbiyot terminologiyasida: *nasal catharrh, distention; bloating, cyst* kabi turlari mavjudligi ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari *chest, breast, thoracic cage; measuring hopper, batcher, meter; occlusion, block, obstruction* kabi ma'nodosh bo'lgan birliklar tez-tez qo'llanadi.

Tibbiy terminologiyada ingliz hamda o'zbek tillari milliy xususiyatlari doirasida oddiy atama-so'z va murakkab tibbiy atamalar o'zaro ma'nodoshlikni tashkil etadi, deyish mumkin. Darhaqiqat, tibbiy birliklarga variant, nomdosh sifatida xizmat qiladigan milliy(termin bo'lmagan) atamalar mavjudki, ular nafaqat turli ijtimoiy qatlamda so'zlashuvchilar tomonidan tushuniladi, balki shifokor-bemor muloqotining samarali kechishi, bir-birini aniq tushunishi uchun ham ishlatiladi, lotin-yunon atamalarini esa tadqiqotchilarning ko'p qismi tushunadi, odatda, shu kasb egalari - professionallar o'rtasida ma'lumot almashish uchun ishlatiladi. Jumladan, 1.*Kamqonlik* (ushbu kasallik qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi deb aytiladi. Anemiya). 2.*Sarg'ayma* (ushbu kasallik sariq kasalligi va tibbiyotda gepatit deb ham yuritiladi). 3.*Xafaqon* (ushbu kasallik qon bosimining oshishi, yani gipertoniya hisoblanadi). 4.*Ko'richak* (chuvalchangsimon o'simtaning yallig'lanishi, appenditsit). 5.*Ko'kyo'tal* (o'tkir antroponoz, havo-tomchi yo'li bilan yuquvchi bakterial infeksiya hisoblanadi). 6.*Haftpo'st* (tibbiyotda karbunkul deb yuritiladi). 7.*Suvchechak* ((lotincha varicella - yuqumli kasallik). 8.*Tutqanoq* (tibbiyotda epilepsiya deb yuritiladi). 9.*Parishonxotirlik* (tibbiyotda ateroskleroz deb ataladi). 10. *Bavosil* (gemoroy). 11.*Shapko'r* (yaxshi ko'ra olmaslik, geterozigota) kabilar.

Qiyoslanayotgan tillar kesimida *kar – eshitish bilan bog'liq kasallik* nomining uslubiy-mental ma'nodoshlarini keltirishga harakat qilamiz(2.1-jadvalga

¹⁰ Курышко Г.Ф. Явление синонимии в профессиональной лексике (на материале немецкой и русской медицинской терминологии. – М.: Народный учитель, 2001.-133 с. –С.96

va 2.2-jadvalga qarang):

“2.1-jadval.” Ingliz tilida *kar* kasalligining uslubiy ma’nodoshlari

Euphemistic units	Paraphrastic units	Metaphoric units
